O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SIRDARYO VILOYATI HOKIMINING

QARORI

2023 - yil 17 - oktabr 308-9-0-Q/23 Sirdaryo viloyati hokimligi

Jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga yer uchastkasi ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 11-sentabrdagi 83-sonli XDFU bayoni, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma’muriy Reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 543-sonli qarori hamda yer ajratish materiallari vakolatli organlar ijobiy xulosalari bilan kelishilganligini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Yer kodeksi”ning 5, 20-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6-moddasiga muvofiq **qaror qilaman:**

1. Sirdaryo viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasining 2023-yil 18-sentabrdagi 01/9-06/31-sonli xati qanoatlantirilsin hamda viloyatdagi tegishli tashkilot va korxonalarning ijobiy xulosalari ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Sirdaryo viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi buyurtmachiligida, Sirdaryo viloyati Yangiyer shahar “A.Jomiy” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan yangi 990 o‘rinli umumta’lim maktabi binosini (12 x 24 metr o‘lchamda sport zal bilan) qurish uchun “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasiga, shahar hokimligi zaxirasidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan boshqa yerlardan 80 x 70 metr o‘lchamda 0,56 gektar A1724413003/30 raqamli yer uchastkasi jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratilsin.

3. Sirdaryo viloyati hokimligi huzuridagi “Yagona buyurtmachi xizmati” davlat unitar korxonasi (A.Kushanov)ga:

yangi 990 o‘rinli umumta’lim maktabining qurilishi bo‘yicha belgilangan tartibda loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqib, ekspertizadan o‘tkazish hamda qurilish ishlarini o‘z muddatida amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarori 31-bandi talablari asosida Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi, Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi hamda “O‘zGAShKLITI” DUK loyiha-qidiruv tashkiloti filiali bilan birgalikda yangi 990 o‘rinli umumta’lim maktabi binosini qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi chegaralarini joyida (naturada) belgilanishini ta’minlash va yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish majburiyatlari yuklatilsin.

4. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (B.Minasipov) yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazsin hamda viloyat yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari R.Boboyev va viloyat hokimining o‘rinbosari V.Ibadullayev zimmasiga yuklatilsin.

Sirdaryo viloyati hokimi **A.Maxmudaliyev**